



## IMPACT OF CORPORATE BANKRUPTCY LAWS ON ENTREPRENEURSHIP

Aminjon Kalandarov <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Tashkent State Law University in public administration

(Uzbek) first-year master's degree

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4737939>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021

Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021

Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

bankruptcy institute,  
bankruptcy law, corporate  
bankruptcy, bankruptcy  
procedures, pre-trial  
rehabilitation, supervision,  
judicial rehabilitation,  
external management,  
settlement agreement.

### ABSTRACT

*This article discusses the development of the institution of bankruptcy in our country, the process of forming the national legislative system in the field of bankruptcy and the impact of the current legislation in the field of bankruptcy on business activities.*

## KORPORATIV BANKROTLIK TO`G`RISIDAGI QONUNLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TA`SIRI

Aminjon Qalandarov <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent davlat yuridik universiteti, magistratura talabasi, biznes huquqi yo'nalishi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021

Ma'qullandi: 25-aprel 2021

Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO`ZLAR

bankrotlik instituti,  
"Bankrotlik to`g`risida" gi  
qonun, korporativ bankrotlik,  
bankrotlik tartib taomillari,  
sudgacha sanatsiya qilish,  
kuzatuv, sud sanatsiyasi,  
tashqi boshqaruv, kelishuv  
bitimi.

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada mamlakatimizda bankrotlik institutining rivojlanishi, bankrotlik to`g`risidagi milliy qonunchilik tizimining shakllanish jarayoni hamda "Bankrotlik to`g`risida" gi amaldagi qonunchilikning tadbirkorlik faoliyatiga ta`siri masalalari ko`rib chiqilgan.*



Korporativ bankrotlik deyarli barcha davlatlarda keng tarqalgan tushunchadir. Barcha tadbirkorlar muvaffaqiyatga sari intilishsada, afsuski, ularning ayrim korxonalarini muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va ayrimlari bankrotlik bilan tugaydi. Bankrotlik to'g'risidagi qonun mavjudligining standart asoslari kreditorlarning talablari bir-biriga mos kelmaydigan vaziyatni hal qilish zarurati hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlariga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ular faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishning yanada qulay mexanizmlarini ishlab chiqish va har jabhada tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining ustuvorligi prinsipiga amal qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e'tibor faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini yanada takomillashtirishga qaratildi. Mazkur islohotlar natijasida O'zbekiston Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" (Doing business) xalqaro reytingida so'nggi besh yil ichida o'z o'rnini 18 pog'onaga yaxshiladi. "Biznes yuritish 2020" (Doing business) hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning reyting o'rnini dunyoning 190 ta mamlakati orasida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilgan. Bunday ko'tarilishga asosiy sabab sifatida minoritar aksiyadorlarni himoyalash, shartnomalar ijrosini ta'minlash hamda xalqaro savdo sohasini soddalashtirish

yo'nalishlaridagi indikatorlarning yaxshilanganligi e'tirof etilgan. Erishilgan yutuqlarga qaramay, bir qancha indikatorlarda o'sish qayd etilmagan, bunday indikatorlardan biri bu "to'lovga qobilyatsizlikni hal qilish" (Resolving insolvency) hisoblanadi. Ushbu indekator bo'yicha O'zbekiston "Biznes yuritish 2020" (Doing business) reytingida 100 o'rinni egallagan[1].

Xo'sh, mamlakatimiz iqtisodiyotida bankrotlik institutining tutgan o'rnini hamda bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik normalarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri qanday?

Bugungi rivojlanib borayotgan iqtisodiy davrda bankrotlik instituti bozor munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib bormoqda. Aynan bankrotlik instituti xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy sog'lomlashtirish yo'li bilan ularning to'lov qobiliyatini tiklash yoki norentabl, istiqbolsiz, zarar ko'rib ishlayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tugatish jarayonini tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda bankrotlik instituti nisbatan yangi huquqiy institut bo'lib, u mustaqillikdan so'ng turli mulk shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan rivojlana boshladi. O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi bankrotlik munosabatlarini tartibga soluvchi dastlabki qonun 1994-yil 5-mayda qabul qilindi. Ushbu qonunda ilk marotaba xo'jalik subyektlarining o'z faoliyatlari natijalari uchun, eng avvalo, o'z kreditorlari oldida javobgar ekanliklari, samarali ish yuritmagankliklari uchun birinchi navbatda o'z mol-mulklari bilan iqtisodiy mas'uliyatga ega ekanliklari mustahkamlandi. Qonunda bankrotlik tushunchasiga ta'rif berish bilan birga bankrot deb topishning aniq mexanizmlari o'rnatildi, bankrotlikning iqtisodiy va huquqiy oqibatlari belgilab berildi. Mazkur Qonun 35 ta moddadan iborat



edi. "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun 1998-yil 28-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi. U mazmunan boyitilib, yangi tartib-taomillarni belgilab berdi. Mazkur Qonun 133 ta moddadan tashkil topgan edi. Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasining amaldagi 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri muhim ahamiyatga ega. Mazkur Qonun bankrotlikka oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonun bo'lib, bankrotlikning asosiy tartib-taomillarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatdir. Ushbu yangi tahrirdagi Qonun 1994 va 1998-yillardagi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunlardan sezilarli darajada o'ziga xos qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan farqlanadi. Qonunning yangi tahriri 12 bob, 192 moddadan iborat bo'lib, ushbu Qonunda avvalgilaridan farqli ravishda bankrotlikning asosiy belgilari o'zgardi, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankrotligi tushunchalari bir-biridan farqlandi. Alohida toifadagi subyektlar bankrotligining qoidalari belgilandi [2].

Ushbu qonunning 3-moddasida bankrotlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyatini bajarish bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi"dir [3].

H.R.Rahmonqulov va S.S.Gulyamovlarning ta'kidlashicha, bankrotlik doim natijaning aniq emasligi va tavakkalchilik bilan birga bo'ladigan tadbirkorlikning mohiyatida oldindan belgilangan bo'ladi. Albatta, agar korxonaga muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, bu uning rahbari uchun ham, qolaversa, bu korxonaga o'zining mulkini tikkan shaxslar uchun ham, korxonaning xodimlari uchun ham ayanchli,

fojiali holatdir. Lekin to'lovga qobilyatsizlik jarayoni ular uchun noqulay bo'lgan inqiroz oqibatlarini eng kam darajaga keltirgan holda ularni yengillashtiradi [4].

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida" gi qonuni bir paytning o'zida yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxslarning bankrotligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Lekin bizning qonunchiligimizda korporativ bankrotlik degan tushuncha mavjud emas. Korporativ bankrotlik tushunchasi AQSH bankrotlik kodeksining 11 bo'limida batavsil yoritilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlari shu jumladan korporatsiyalar bankrotlik holatida qayta tashkil etilishi hamda mavjud qarzdorlikni yopish maqsadida o'z aktivlarini likvidatsiya qilishlari mumkin. Bunda dastavval qarzdor o'z rejalarini taklif etadi, lekin ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng kreditorlar ham o'zlarining qayta tashkil etishga doir rejalarini taklif etishlari mumkin. Kreditorlar har bir tanlangan rejani tasdiqlash uchun ovoz berishlari lozim.

Bizning qonunchiligimizda korporatsiya tushunchasi mavjud emas, aniqrog'i mazkur atama qonunchiligimizda ishlatilmaydi. Lekin korporatsiya mohiyatiga ko'ra qonunchiligimizda mavjud xo'jalik shirkatlari va xo'jalik jamiyatlariga to'g'ri keladi. Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining bankrotligi bilan bog'liq barcha qoidalar, avvalo, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Iqtisodiy protsessual kodeksida, Jinoyat kodeksida, Soliq kodeksida, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonunda, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi qonunida va boshqa bir qator qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va



qarorlari hamda hukumat qarorlari bilan mustahkamlangan.

Bankrotlikning yuridik mexazimlari tadbirkorlik faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga egadir, chunki ushbu mexanizmlar yordamida “tugagan o‘yinning qoidalari” shakllantiriladi. Agar bankrotlik tog‘risidagi qonunlar qarzdorga nisbatan uning moliyaviy ahvolini tiklashga hamda unga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsa, bunda mamlakatda bankrotlik darajasi pasayishi bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyati yanada jozibador bo‘ladi. Shuningdek, bunday holat bozorga yangi tadbirkorlik subyektlarining kirishiga qulay imkoniyat yaratishi mumkin. Lekin bunda kreditorlar manfaatlarini ham hisobga olish lozim[5].

Ko‘rib turganimizdek, “Bankrotlik to‘g‘risida” gi qonunning tadbirkorlik faoliyatiga ta‘siri yuqori. Bizning “Bankrotlik tog‘risida”gi qonunchiligimizda kreditorlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish masalasi asosiy o‘rin tutadi. Bunda bankrotlik tartib taomillarini joriy etishdan ko‘zlagan maqsad, eng avvalo, kreditor huquqlarini himoya qilish va qarzdor mol-mulkini talon-taroj qilinishidan himoyalashdir.

“Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni to‘lov qobiliyatini tiklash, ularni moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish uchun bir qator bankrotlik tartib taomillari belgilangan. Ular quyidagilar:

- Sudgacha sanatsiya qilish;
- Kuzatuv;
- Sud sanatsiyasi;
- Tashqi boshqaruv.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorga nisbatan bankrotlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgunga qadar amalga oshiriladi, shu xususiyati bilan ushbu taomil boshqa bankrotlik taomillaridan farq qiladi.

Kuzatuv – iqtisodiy sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta‘minlash, qarzdorning

moliyaviy ahvoli tahlilini o‘tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan paytdan e‘tiboran keyingi taomilga qadar qo‘llaniladigan bankrotlik taomilidir.

Sud sanatsiyasi – iqtisodiy sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda qo‘llaniladigan bankrotlik taomilidir.

Tashqi boshqaruv – iqtisodiy sud tomonidan yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda qo‘llaniladigan bankrotlik taomilidir.

Shuningdek, “Bankrotlik to‘g‘risida” gi qonuning 145-moddasida qarzdor va kreditorlar iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishning har qanday bosqichida kelishuv bitimi tuzishga haqli ekanligi belgilangan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni moliyaviy sog‘lomlashtirish uchun qo‘llangan tartib taomillarga qaramasdan, mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektni “asrab qolish” imkoni bo‘lmasa, sud qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va bu qaror xo‘jalik yurituvchi subyektni tugatishga doir ishlarning boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda qulay tadbirkorlik muhitini yaratishda tabirkorlik subyektlarining bankrotlik munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarning o‘rni muhimdir. Chunki har bir tadbirkorlik subyekti bozor munosabatlariga kirishar ekan, ular o‘z faoliyatini tavakkalchilik asosida olib boradi. Bozor munosabatlari rivojlangan sari tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida raqobat muhiti ham o‘sib boradi. Bu jarayonda ba‘zi tadbirkorlik



subyektlari iqtisodiy nochorlik, ya`ni bankrotlik holatlarini boshdan kechirishi tabiiy holdir. Mamlakatda adolatli, ham kreditorlar ham qarzdorlarning manfaatlarini himoya qiladigan korporativ bankrotlik to`g`risidagi qonunchilikning mavjud bo`lishi to`lov

qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjud korxonalarni moliyaviy sog`lomlashtirish imkonini beradi va aksincha iqtisodiyotga zarar kelitirib ishlayotgan, samarasiz iqtisodiy nochor korxonalarni tugatish uchun zamin yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.doingbusiness.org/content/dasm/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf> ;
2. Azizov Xudoyqul Tojiyevich. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 205 bet;
3. O`zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to`g`risida” gi Qonuni. 2003-yil 24-aprel;
4. H.R.Rahmonqulov, S.S Gulyamov. Korporativ huquq. Huquqshunoslik oliy o`quv yurtlari uchun darslik – T.: TDYU nashriyoti, 2008. 448-bet;
5. Prospect theory and the effects of bankruptcy laws on entrepreneurial aspirations/ <https://link.springer.com/article/10.1007/s1187-016-9810-1>.